4. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish. O'quv qo'llanma. – Samarqand: "SamDU nashriyoti", 2020. – 271 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Лаврушин О. Азизов У. и другие. Банковское дело. Учебник. I часть. – Т.: "Iqtisod-Moliya", 2019 г. – 704 стр.

2. Лаврушин О. Азизов У. и другие. Банковское дело. Учебник. II часть. – Т.: "Iqtisod-Moliya", 2019 г. – 704 стр.

3. Синки Дж. Финансовий менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансових услуг. Пер. с англ. – М.: Алпина Паблишер, 2017. – 1018 с.

4. Omonov A.A. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarish.- Monografiya.- T.: "IQTISOD-MOLIYa".-2016.-160 b.

Axborot manbalari

1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali

2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

3. www.wordbank.org - Jahon bankining rasmiy axborot sayti

4. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy axborot sayti

5. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy axborot sayti.

Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va sevis instituti Kengashning 2024 yil "29" avgustdagi 1 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. Samarqand iqtisodiyot va sevis instituti rektorining 2024 yil "___"_____dagi _____ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. FD-14-31

Fan/modul uchun mas'ular:

A.M.Karimova Sam ISI "Bank ishi" kafedrasi mudiri i.f.d., dotsenti.

Z.D.Niyozov Sam ISI "Bank ishi" kafedrasi i.f.n., dotsenti.

Taqrizchilar:

A.M Shermatov-" Ipak yo'li" Aksioneri-inovatsion tijorat banki " Umar" mintaqaviy filial Bosh bug'alteri.

S.N. Tashnazarov-Samarqand iqtisod va servis instituti " Bug'alteriay hisobi va auditi" kafedra mudiri, i.f.d. , professor v.b

Z.D.Niyozov Sam ISI "Bank ishi" kafedrasi i.f.n., dotsentl.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlar bo'yicha prorektor
T.S.Sharipov
_____
«29» 08 2024 yil
Ro'yxatga olindi: №_____
2024 yil "29" 08

« TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARNI BOSHQARISH»
FAN DASTURI
(magistratura)

Bilim sohasi:	**400 000 - Biznes, boshqaruv va huquq**
Ta'lim sohasi:	**410 000 - Biznes va boshqaruv**
Ta'lim yo'nalishi:	**70410501 - Bank ishi**

Samarqand – 2024

modul kodi / ТБАПБ 1108		O'quv yili 2024 – 2025	semestr 1	Kreditlar 5
modulning ko'rinishi asosiy		Ta'lim tili o'zbek/rus		Haftada auditor soatlar 6
1	Fan nomi	Auditor darslar (soatlar)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy yuklama (soat)
	Tijorat banklari aktiv va pasivlarni boshqarish	60	90	150

I.Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga tijorat banklari aktiv va passivlarini shakllantirish, samarali boshqarishni tashkil etish, tijorat banklarining aktiv va passivlari monandligini ta'minlash, likvidlilik va rentabellikni boshqarish usullarini tadbiq qilish, tijorat banklari aktiv va passivlarini tezkor va strategik rejalashtirish, innovatsion xizmatlarni tadbiq qilishni o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi – nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishda depozit siyosati va uni takomillashtirish, tijorat banklari aktiv va passivlarini strategik boshqarish va tijorat banklari resurslari va ulardan samarali foydalanish yo'llari, tijorat banklari kapitalini boshqarish, qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarish, banklararo kredit resurslari bozori, kredit aktiv va passivlarini jalb qilish mexanizmi, tijorat banklari o'z mablag'lari va ularning tarkibi, jalb qilingan mablag'lar va ulardan samarali foydalanish, bank aktiv va passivlarini boshqarish usullari, bank tijorat banklari aktiv va passivlari bilan bog'liq risklarni boshqarishning nazariy-amaliy jihatlarini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish.

II.Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. "Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish" fanining predmeti, metodi va vazifalari.

"Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish" fanining predmeti va metodi. Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi. Fanning maqsad va vazifalari. Fanning ixtisoslik fanlari qatoridagi o'rni va ahamiyati. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning nazariy asoslari. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning asosiy mezonlari.

2-mavzu. Tijorat banklari aktivlar va passivlarining tarkibiy tuzilishi va ularni boshqarish zarurligi.

Tijorat banklari aktivlarining mohiyati, uning banklar faoliyatida tutgan o'rni hamda nazariy va amaliy asoslari. Tijorat banklari aktivlarining tarkibiy tuzilishi va klassifikatsiyasi. Tijorat banklari aktivlarini boshqarishning bozor mexanizmlari. O'zbekistonda tijorat banklari aktivlarni boshqarishning normativ-huquqiy asoslari.

Tijorat banklari passivlarining mohiyati, uning banklar faoliyatida tutgan o'rni hamda nazariy va amaliy asoslari. Tijorat banklari passivlarining tarkibiy tuzilishi va klassifikatsiyasi. Tijorat banklari tomonidan resurslarni jalb etish siyosati. Tijorat banklari passivlarini shakllantirishning bozor mexanizmlari. O'zbekistonda tijorat banklari passivlarini shakllantirishning normativ-huquqiy asoslari. Tijorat banklari passivlarini shakllantirish printsiplari.

3-mavzu. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish prinsiplari va usullari. Aktiv va passivlarini boshqarishning asosiy yo'nalishlari

Tijorat banklari aktivlarining turkumlanishi. Tijorat banklari aktivlarini risk darajalariga ko'ra turkumlanishi. Banklar riskli aktivlarini boshqarish printsiplari. Tijorat banklari riskli aktivlarini boshqarish usullari

Tijorat banklari aktivlari sifatini tasniflash tizimi. Tijorat banklari aktivlari ta'minotga qo'yiladigan talablar. Berilgan bank kafolatlarining sifatini tasniflash. Tijorat banklari investitsiya portfelining sifatini tasniflash. Tijorat banki aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga doir zaxirani shakllantirish. Zaxiralardan foydalanish.

4-mavzu. Tijorat banklari likvidligini ta'minlash va uni boshqarish

Tijorat banki likvidliligi tushunchasi. Bank likvidliligiga ta'sir qiluvchi omillar. Tijorat banklarida balanslashmagan likvidlilikning yuzaga kelish sabablari. Banklar likvidliligini ta'minlash yo'llari. Tijorat banklari likvidliligini boshqarish usullari. Tijorat banklarida likvidlilikni boshqarish samaradorligini baholash.

5-mavzu. Tijorat banklarining kredit siyosati. Bankning kredit siyosati va uning ustuvor yo'nalishlari.

Banklarning kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar. Tijorat banklarini kredit siyosatining mezonlari. Tijorat banklari kredit siyosatida kreditlarning daromadliligini oshirish, ularning risk va daromadlilik darajalari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash masalalari. Kredit siyosatida kreditlarning garov ta'minotiga va monitoringiga qo'yiladigan talablar. Tijorat banklari kredit siyosatini takomillashtirish.

6-mavzu. Tijorat banklari kredit portfelini boshqarish

Tijorat banklari kredit portfeli tushunchasi va uni tashkil etilishi. Kredit portfelini sifat jihatdan tahlili. Kredit portfelini diversifikatsiya qilish zarurligi. Muammoli ssudalar. Muammoli ssudalarni yuzaga kelishining belgilari va asosiy

sabablari. Kreditlarning qaytarilmaslik muammosini keltirib chiqaruvchi omillar. Tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish usullari.

7-mavzu. Banklarning uzoq muddatli moliyaviy resurslari va ularni boshqarish xususiyatlari. Tijorat banklarining investitsion operatsiyalarini boshqarish

Tijorat banklarining moliyaviy resurslari xususida tushuncha va ularning nazariy asoslari. Banklarning uzoq muddatli moliyaviy resurslari va ularning tarkibi. Tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish yo'llari. Banklarning uzoq muddatli moliyaviy resurslarini boshqarish xususiyatlari.

Tijorat banklari investitsion operatsiyalarining mazmuni va zarurligi. Banklar faoliyatida investitsion operatsiyalarni tutgan o'rni va boshqarish printsiplari. Tijorat banklari investitsion operatsiyalarini boshqarish usullari: markazlashgan tarzda boshqarish usullari; markazlashmagan tarzda boshqarish usullari.

8-mavzu. Tijorat banklari kapitalini boshqarish

Bank kapitali va uning bank faoliyatini amalga oshirishdagi o'rni. Bank kapitalini tashkil qiluvchi asosiy elementlarning tavsifi. Regulyativ kapital manbalari va barqarorligining iqtisodiy ahamiyati. Bankning regulyativ kapitali va uni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Bank kapitali etarliligi va unga nisbatan o'rnatilgan me'yorlar. Bank kapitalini oshirishning asosiy manbalari. Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha xalqaro talab va standartlar (Bazel III) hamda ulardan O'zbekiston bank amaliyotida foydalanish imkoniyatlari. Tijorat banklari kapitalini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va usullari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va rivojlantirishning zamonaviy bosqichida tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar.

9-mavzu. Tijorat banklari emission operatsiyalarini boshqarish

Tijorat banklarining emission faoliyati. Tijorat banklari tomonidan emission qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish tartibi. Banklarning noemission qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish tartibi. Tijorat banklarining emission operatsiyalarini boshqarish printsiplari va usullari. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining emission operatsiyalarining amaldagi holati, rivojlanish tendentsiyalari va muammolari.

10-mavzu. Tijorat banklari depozitlarini boshqarish

Tijorat banklari depozitlarining zarurligi va banklar faoliyatida tutgan o'rni. Tijorat banklari depozitlarining turlari va ularning qiyosiy tavsifi. Banklarning depozit siyosati, ularning elementlari va mezonlari. Tijorat banklari depozit siyosatini shakllantirishning asosiy printsiplari. Tijorat banklari depozit bazasining etarliligi va uni tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Bank depozitlari bahosini shakllantirish usullari. Tijorat banklari depozitlarini boshqarishning xorij tajribasi. Tijorat banklari depozitlarini boshqarish usullari.

11-mavzu. Banklararo kredit resurslari bozori. Banklararo kredit resurslari bozorining mazmuni.

Kredit resurslari bozorining tarkibi: qisqa muddatli pul bozori; kapitallar bozori. Banklararo kredit resurslari bozorini tashkil etish. Banklararo kreditlarning turkumlanishi (klassifikatsiyasi) va ularning xususiyatlari. Banklararo kreditlar bo'yicha foiz stavkalari va uni o'rnatish tartibi. Banklararo kredit resurslari bozoriga Markaziy bank pul-kredit siyosatining ta'siri. O'zbekistonda banklararo kredit resurslari bozorining zamonaviy holati va tendentsiyalari.

12-mavzu. Tijorat banklarida risklarni boshqarish

Banklar faoliyatida aktiv va passivlarini shakllantirish bilan bog'liq risklar va ularning turlari. Moliyaviy resurslarni joylashishi bilan bog'liq risklar. Bank risklari va ularning turlari. Bank risklarini tasniflash. Kredit risklari va ularni kelib chiqish sabablari. Kreditning alohida turlari bo'yicha risklarni aniqlash va uni monitoringi. Foiz riski va uni boshqarish. Operatsion risk va uni boshqarish. Likvidlilik riski va uni boshqarish. Bozor riski va uni boshkarish. Risklarni monitoring orqali boshqarish. Bank risklarini boshqarish usullari.

13-mavzu. Moliya va elektron pul bozorlari aktivlarini boshqarish

Moliya bozori va uning segmentlari. Moliya bozori instrumentlari va ularning qiyosiy tavsifi. Moliya bozori instrumentlarini boshqarish printsiplari va usullari. Moliya bozori instrumentlarining bozor bahosi va unga ta'sir qiluvchi omillar. Elektron pul bozorining shakllanishi va rivojlanishi. Elektron pullar muomalasini tashkil etish va boshqarishda tijorat banklarinig o'rni. Elektron pullar muomalasini boshqarish printsiplari va usullari. Kriptovalyutalar muomalasining yuzaga kelishi va rivojlanishi. Kriptovalyutalar vositasida to'lovlarni amalga oshirish tartibi. O'zbekiston Respublikasida kriptovalyutalar muomalasini joriy qilish istiqbollari.

14-mavzu. Tijorat banklarining foiz siyosati va uni boshqarish

Tijorat banklari foiz siyosatining mohiyati va iqtisodiy ahamiyati. Banklarda foiz siyosatining nazariy-xuquqiy asoslari. Tijorat banklari amaliyotida foydalaniladigan foiz stavkalari, ularning asosiy. Xorijiy davlatlar bank amaliyotida foiz stavkalarini shakllantirish tajribasi. Tijorat banklari foiz siyosatining amaliy jihatlari. Tijorat banki foiz siyosatiga ta'sir qiluvchi omillar. Tijorat banklarida foizlarni boshqarish. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining foiz siyosati bilan bog'liq muammolari hamda ularni hal qilish yo'llari.

15-mavzu. Tijorat banklarida daromad va xarajatlarni boshqarish. Tijorat banklari foydasi va uni taqsimlash

Tijorat bankining daromadlari va ularni tuzilishi. Tijorat banklari foizli va foizsiz daromadlari. Tijorat banklari aktivlarining daromadlilik darajasi. Bank kredit operatsiyalarining daromadliligi. Tijorat banklarining daromadiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar. Tijorat bankining xarajatlari, ularning tuzilishi va tarkibi. Tijorat banklari foizli va foizsiz xarajatlari. Ish haqi xarajatlarining normativ darajasi. Kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining me'yoriy (normativ) darajasi. Tijorat banklari daromadlari va xarajatlarining darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi. Tijoart banklari daromadlari va xarajatlarini boshqarishi usullari.

Tijorat banklari foydasining mohiyati. Tijorat banklarining sof yalpi daromadi. Banklarda joriy yilning sof foydasi. Tijorat banklarida taqsimlanmagan foyda. Tijorat banklarining "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobotining tarkibiy tuzilishi. Banklarda sof foydaning darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Tijorat banklarining sof foydasi miqdori va darajasiga ta'sir qiluvchi omillar. Bankning foydasi va uning taqsimlanishi. Bankning rentabelligini baholash va uni oshirish yo'llari

III.Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

(Amaliy mashg'ulotlari), (Mustaqil ta'lim), (Kurs ishi) o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi) Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1."Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish" fanining predmeti, metodi va vazifalari.

2.Tijorat banklari aktivlarining tarkibiy tuzilishi va ularni boshqarish zarurligi. Tijorat banklari passivlarining tarkibiy tuzilishi va ularni boshqarish zarurligi.

3.Tijorat banklari riskli aktivlarini boshqarish.Tijorat banklari aktivlari sifatiga quyilgan talablar va ularni boshqarish yollari.

4.Tijorat banklari likvidligini ta'minlash va uni boshqarish.

5.Tijorat banklarining kredit siyosati. Bankning kredit siyosati va uning ustuvor yo'nalishlari.

6.Tijorat banklari kredit portfelini boshqarish.

7.Banklarning uzoq muddatli moliyaviy resurslari va ularni boshqarish xususiyatlari. Tijorat banklarining investitsion operatsiyalarini boshqarish.

8. Tijorat banklari kapitalini boshqarish.

9. Tijorat banklari emission operatsiyalarini boshqarish.

10. Tijorat banklari depozitlarini boshqarish.

11. Banklararo kredit resurslari bozori.

12.Tijorat banklari risklarini boshqarish.

13. Moliya va elektron pul bozorlari aktivlarini boshqarish.

14. Tijorat banklarining foiz siyosati va uni boshqarish.

15. Tijorat banklari daromad va xarajatlarini boshqarish. Tijorat banklari foydasi va uni taqsimlash.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tijorat banklari faoliyatini boshqarishni tashkil qilishning umumiy asoslari.

2. Tijorat banklari aktiv va passivlari va ularni tashkil qilishning umumiy jihatlari.

3. Tijorat banklarining kapitalini boshqarish.

4. Bank majburiyatlarini boshqarish.

5. Tijorat banklarining kredit siyosati kreditlarni boshqarishning asosi sifatida.

6. Tijorat banklari kredit portfelini boshqarish.

7. Tijorat banklari aktiv va passivlari bilan bog'liq risklar va ularni boshqarish.

8. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishda depozit siyosati va uni takomillashtirish.

9. Bankning foydasi va uning taqsimlanishi.

10. Tijorat banklarini moliyaviy aktiv va passivlarini strategik boshqarish.

11. Bankning rentabelligini baholash va uni oshirish yo'llari.

12. Tijorat banklari aktiv va passivlari va ulardan samarali foydalanish yo'llari.

13. Kredit iqtisodiy kategoriyasi va kreditlashni tashkil etishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.

14. Kredit mexanizmining tarkibiy qismlari.

15. Kredit resurslarini jalb qilish (akkumulyasiya) mexanizmi.

16. Tijorat banklarining foiz siyosati.

17. Tijorat banklari kredit potentsiali.

18. Kredit portfeli diversifikatsiyasi va bank kreditlarini tasniflash, zaxiralar tashkil etish tartibi.

19. Tijorat banklarining investitsion faoliyatini boshqarish.

20. Kredit risklari va ularni boshqarish.

21. Tijorat banklari foizli va foizsiz daromadlari.

22. Elektron pul bozorining shakllanishi va rivojlanishi.

23. Banklararo kredit resurslari bozorini tashkil etish.

24. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining emission operatsiyalarining amaldagi holati, rivojlanish tendentsiyalari va muammolari.

25. Tijorat banklari investitsion operatsiyalarini boshqarish usullari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, mavzular bo'yicha prezentatsiyalar tayyorlash va o'rnatilgan tartibda taqdim etish tavsiya etiladi.

V.Fan bo'yicha kurs ishi.

Kurs ishi tasdiqlangan o'quv rejada ko'zda tutilgan ta'lim mutaxassisligida bajariladi. "Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish" fani bo'yicha kurs ishi tanlangan mavzu bo'yicha natijalarni umumiy yaxlitlikka ega ilmiy va amaliy fikrlarni aks ettiruvchi loyihaviy ishdir. Kurs ishi "Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish" fani rivojlanishining zamonaviy darajasiga, iqtisodiyotning rivojlanish tendentsiyalariga doir masalalarini aks ettirishga mos kelishi kerak.

Kurs ishi nafaqat nazariy ahamiyati, mavzusining dolzarbligi va erishilgan natijalarning amaliyotga tadbiqi, balki uning uslubiy tayyorgarlik darajasi hamda rasmiylashtirilishiga qarab baholanadi. Kurs ishini yozishning eng muhim bosqichi - bu qo'yilgan savollarning o'zaro nazariy va amaliy aloqadorligini ta'minlash. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini to'g'ri belgilash magistrga kurs ishining maqsadi va vazifalarini aniq qo'yish hamda ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini, shuningdek, kurs ishini tayyorlash bosqichlarini to'g'ri tanlashga imkon yaratadi. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini oqilona va sifatli ishlab chiqilishi magistrga izlanishning oldiga qo'yilgan maqsad hamda natijalarini to'g'ri ifodalash, fikrlarni bayon etish uslublari va kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ajratish imkonini beradi. Kurs ishi magistrning ilmiy jihatdan etukligi hamda

"Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish" fani bo'yicha chuqur bilimga va amaliy ko'nikmaga egaligini namoyon qilishi zarur. Kurs ishida o'rganiladigan masalalarning nazariy jihatlari, aniqlangan muammolarini, qo'yilgan ilmiy va amaliy vazifalarni tahlil qilish hamda muammolarni hal etishni ko'zlagan holda bir-biriga mantiqiy mos reja tuziladi va shu asosida yoziladi. Magistr kurs ishi bo'yicha izlanish natijalarini yoritishda xorijiy mamlakatlarda banklar faoliyatini tashkil qilish va bank aktiv va passivlarini boshqarishning o'ziga xosligini hisobga olib, chet davlatlarning tajribalarini o'zimizda orttirgan amaliy yutuqlarni umumlashtirgan holda ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, belgilangan muammolarning echimini topish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqadi va bartaraf qilish usullarini tavsiya etadi. Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi: - o'rganilayotgan muammo bo'yicha mavjud iqtisodiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish; - kurs ishida chizma va jadvallarni muayayn tizimga keltirilgan holda rasmiylashtirish; - kurs ishi bo'yicha to'plangan materiallarni tanqidiy o'rganish; - taklif va tavsiyalarning asoslab berilishi; - talaba tomonidan fikrning ketma-ketlikda, muayyan izchillikda bayon qilinishi; - qo'yilgan talablar bo'yicha kurs ishining rasmiylashtirilishi.

Kurs ishi uchun taxminiy mavzular:

1. Bank aktivlari va passivlarining o'zaro mutanosibligi va uni bankning daromad ko'rsatkichlariga ta'siri.

2. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish usullari.

3. Tijorat banklari foiz siyosatini boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlari.

4. O'zbekistonda banklararo kredit resurslari bozori va uni takomillashtirish.

5. Tijorat banklari riskli aktivlarini baoshqarish.

6. Tijorat banklari depozit bazasining etarliligi va barqarorligini oshirish yo'llari.

7. Tijorat banklarining kredit siyosati va uni takomillashtirish yo'llari.

8. Tijorat banklari kredit portfeli diversifikatsiyasi va uni boshqarish.

9. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan emission faoliyati.

10. Tijorat banklari aktiv va passivlarini barqarorligini ta'minlash.

11. Banklararo raqobat sharoitida tijorat banklari resurs bazasini oshirish va mustahkamlash yo'llari.

12. Bazel qo'mitasining tijorat banklari kapitalining etarliligiga nisbatan qo'yilgan yangi talablari.

13. Tijorat banklarining kapitalini boshqarish.

14. Tijorat banklarining investitsion operatsiyalarini boshqarish.

15. Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar samaradorligini oshirish.

16. Tijorat banklarining muammoli kreditlari va ular bilan ishlash.

17. O'zbekiston Respublikasida banklararo pul bozorini rivojlantirish yo'nalishlari.

18. O'zbekiston tijorat banklarida kredit riskini baholash va uning darajasini pasaytirish yo'llari.

19. Kriptovalyutalar muomalasining yuzaga kelishi va rivojlanishi.

20. Tijorat banklarining aktiv va passivlarini strategik va tezkor rejalashtirish va boshqarish usullari.

21. Tijorat banklari riskli aktivlarini boshqarish usullari.

22. Moliya va elektron pul bozorlari aktivlarini boshqarish.

23. Tijorat banklari foydasi, uni taqsimlash va ko'paytirish yo'llari.

24. Tijorat banklari daromadlari va uni boshqarish.

25. Tijorat banklari xarajatlarini optimallashtirish orqali foydani oshirish yo'llari.

26. Tijorat banklarining rentabellik ko'rsatkichlari va ularni tahlili.

27. Bazel qo'mitasining tijorat banklari likvidliligini baholash va boshqarish bo'yicha talablari.

28. O'zbekiston respublikasi tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirish yo'llari.

29. Tijorat banklari aktiv va passivlari bo'yicha foiz siyosati va uni takomillashtirish.

30. Tijorat banklari likvidliligini ta'minlashda Markaziy bank monetar siyosatininig o'rni.

31. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar.

32. Banklararo kredit resurslari bozorini tashkil etish va uni rivojlantirish yo'llari.

33. Tijorat banklarining muammoli kreditlari va ular bilan ishlash.

34. Tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish usullari.

35. O'zbekiston Respublikasida kriptovalyutalar muomalasini joriy qilish istiqbollari.

VI Ta'lim natijalari

Kasbiy kompetentsiyalar Talaba bilishi kerak:

- tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish bilan bog'liq muammolarni ilmiy tahlil qilishi, bank aktiv va passivlarini jalb qilish usullari, tijorat banklari aktiv va passivlarini tarkibi va uni shakllanishi, tijorat banklari aktivlari, passivlari, likvidliligi va rentabelligi, banklar foizlari stavkasi va tarkibi, tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish usullari haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)

- tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish bilan bog'liq me'riy hujjatlarni, bank aktiv va passivlarini boshqarishning iqtisodiy dastaklari, tijorat banklari depozit va dividend siyosatini boshqarish yo'llari, bank aktiv va passivlari bilan bog'liq normativlar bo'yicha iqtisodiy me'yorlari, bank passivlarini shakllantirish va uni joylashtirish masalalari, bank aktiv va passivlari qiymatini hisoblashi, tijorat banklari aktiv va passivlar bo'yicha foiz siyosatini boshqarish usullarini bilish va ulardan foydalanishni bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)

- tijorat banklari xarajatlari, foydasi va rentabelligini hisoblash, tijorat banki faoliyatini iqtisodiy baholash, tijorat banki kredit va investitsiya potentsialini baholash, bank resurslari bilan bog'liq risklarni boshqarish, innovatsion xizmatlardan tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda foydalanish, bank aktiv va passivlarini jalb etish muammolarini echish, jalb qilingan mablag'lardan samarali foydalanish, o'z mablag'laridan samarali foydalanish, tijorat banklar aktivlari va passivlarini boshqarish sohasidagi mavjud muammolar echish bo'yicha qabul qilish malakasiga ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)

VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

. **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish(test va og'zaki)ni topshirish.

6. Asosiy adabiyotlar

1. Азизов У. и другие. Банковское дело: Учебник. – Т.: "Iqtisod-Moliya", 2019 г. – 720 стр.

2. Abdullaeva Sh., Azizov U. Bank ishi. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019 y. - 536 bet.

3. I.M. Alimardonov, R.T. Shomurodov, J.K. Majidov. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish. Darslik.-T.: "Nihol print" OK, 2021. - 216 b.